

13. Robert E. Gabler, James F. Petersen, L. Michael Trarasso. Essentials of Physical Geography. 2007.

14. Хасанов И.А., Фуломов П.Н. Ўрта Осиё табиий географияси.-Т.: Университет, 2002.

15. Фуломов П.Н. Ўзбекистонда табиатдан фойдаланишнинг географик асослари. -Т.: Ўқитувчи, 1990.

16. Хасанов И.А. Оценка природных территориальных комплексов Каршинской степи для оросительной мелиорации. -Т.: «Фан» 1981.

#### Internet saytlari

1. [www.bearingpoint.uz](http://www.bearingpoint.uz)

2. [www.Ziyo.net](http://www.Ziyo.net)

3. [www.stat.uz](http://www.stat.uz)

VI. Termiz davlat universiteti Geografiya kafedrasidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.

Fan uchun ma'sullar:

M.Erdanov – geografiya kafedrasining muduri.

S.Xursanov – geografiya kafedrasining o'qituvchisi

Taqrizchi:

Q.Allanov- Termiz davlat universiteti "Geografiya" kafedrasida dotsenti g.f.n

## O'zbekiston Respublikasi

### Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

#### Termiz davlat universiteti



#### O'ZBEKISTON IQLIMI VA SOV RESURSLARI

fanidan  
O'quv dasturi

Bilim sohasi:

040000 – Gumanitar soha

Ta'lim sohasi:

140000 – Tabiiy fanlar

Ta'lim yo'nalishi:

5140600 – Geografiya

Termiz-2023

## I.FANNING MAZMUNI

“O‘zbekiston iqlimi va suv resurslari” fani “5140600-Geografiya” ta’lim yo‘nalishi 5-kurs sirtqi talim shakli o‘quv rejasiga asosan 9-semestrda mos ravishda 14 soat ma’ruza, 16 soat amaliy mashg‘ulot auditoriya soatlarida o‘qitiladi. Ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar davomida Kirish, Fanning maqsadi va vazifalari, O‘zbekistonda iqlimga umumiy tavsif, O‘zbekistonda havo namligi va yog‘inlarning geografik taqsimoti, Yil fasllari. O‘zbekistonning iqlim resurslari va undan oqilona foydalanish, O‘zbekistonda ichki suvlarning hududiy taqsimlanishi, O‘zbekistonning yer osti suvlari, O‘zbekiston suv resurslaridan oqilona foydalanish, O‘zbekistonning iqlim xaritasi, Iqlim elementlarini hududiy geografik taqsimlanishi, O‘zbekistonning yanvar va iyul oylari izotermalari xaritasi, O‘zbekistonda havo haroratining punktlar bo‘yicha geografik taqsimlanishi, O‘zbekistonda yog‘inlarning punktlar bo‘yicha geografik taqsimlanishi, Havoning mutloq va nisbiy namligi, Bulutlar tasnifi, O‘zbekistonni agroiqlimiy rayonlashirilishi, O‘zbekistonning gidrografik xaritasi, O‘zbekistonning yirik daryolari va ularning gidrometrik ko‘rsatkichlari, O‘zbekistonning ko‘llari va suv omborlarining gidrometrik ko‘rsatkichlari tahlili kabi mavzular misollar asosida tushuntirib o‘tilgan.

## II. ASOSIY NAZARIY QISM (ma’ruza mashg‘ulotlari)

### II.1. Fan tarixiga quyidagi mavzular kiradi:

#### 1-mavzu. Kirish. Fanning maqsadi va vazifalari. Tadqiqot usullari

O‘zbekiston iqlimi va suv resurslari o‘quv kursining tabiiy geografiya fanlar sistemasiga kiradi va tabiiy geografik jarayonlarning geografik jixatdan o‘rganadi.

O‘zbekiston iqlimi va suv resurslari o‘quv kursining Vatanimiz O‘zbekistonning iqlimini shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar, ularning holati, iqlim hosil qiluvchi omil va suv resurslarining bir-biriga bog‘liqligi, iqlim va suv boyliklari, ulardan oqilona foydalanish, muhofaza qilish haqida bilim berish bilan birga respublikamiz tabiatidagi tafovutlarni tushunib olishga va amaliy faoliyatda ularni nazarda tutishga xizmat qiladi

**Adabiyotlar:** [ 1,2,3,4,5,7,9,15 b. ]

#### 2-mavzu. O‘zbekiston iqlimiga umumiy tavsif

O‘zbekiston hududi serqiyoshligi, iqlimining kontinentalligi, qurg‘oqchilligi bilan ajralib turadi. Uning shimoliy qismi (Ustyurt) mo‘‘tadil, qolgan asosiy qismi esa subtropik iqlim xususiyatlari mavjud bo‘lgan Turon iqlimi o‘lkasida joylashgan. Mo‘‘tadil mintaqada joylashgan qismi—Ustyurt uchun qurg‘oqchilligi, qishining uzoq davom etishi, sovuqligi, yog‘in — sochinning fasllar bo‘yicha deyarli bir xil taqsimlanganligi, subtropik mintaqada joylashgan” qismi esa yozning quruqligi, issiqligi, qishining esa qisqa, nisbatan iliqliigi bilan ajralib turadi.

**Adabiyotlar:** [ 1,2,3,4,5,7,9,15 b. ]

#### 3-mavzu. O‘zbekistonda havo namligi va yog‘inlarning geografik taqsimoti.

O‘zbekistonning tekislik qismi subtropik iqlimli cho‘l va mo‘‘tadil iqlimli cho‘l zonalarida joylashgan. Iqlimshunoslar subtropik mintaq cho‘llari bilan mo‘‘tadil mintaq cho‘llari o‘rtasidagi chegarani Ustyurt platosining janubi-Quyi Amudaryo (Chimboy) – Qoratog‘ yo‘nalishida o‘tkazadilar. Bu shimoliy (mo‘‘tadil) va janubiy (subtropik) cho‘llar hamda tog‘lik hududlar iqlimida katta farqlar bo‘lib, ular iqlim elementlarining fasllar bo‘yicha taqsimlanishida ko‘zga yaqqol tashlanib turadi.

**Adabiyotlar:** [ 2,3,7,5,9,16,17 a. ]

#### 4-mavzu. Yil fasllari. O‘zbekistonning iqlim resurslari va undan oqilona foydalanish

O‘zbekiston o‘zi joylashgats kengliklardagi boshqa xududlarga nisbatan bu yerda yoz ancha issiq, qish esa sovuqroq bo‘lganidan yil fasllari bizda o‘zgachadir. Fasllarning boshlanish va tugash mudlatlari, ob-havosi o‘ziga xos. Xususan yoz uzoq —4 — 5 oy davom etadd, qish esa qisqa, beqaror bo‘ladi.

**Adabiyotlar:** [ 2,3,7,5,9,16,17 a. ]

#### 5-mavzu. Global iqlim o‘zgarishi mexanizmlari va unga antropogen ta’sir oqibatlari

Iqlim Odam atodan buyon to hozirga qadar doim o‘zgarib keladi. Qadimgi davr iqlimini paleoklimatologiya fani o‘rganadi. Ma’lumki, tabiiy omillar ta’siri natijasida iqlim mudom o‘zgarib turgan. Keyingi o‘n million yillar davomida

global soʻvish jarayoni rivojlanishi oqibatida oʻrtacha kengliklardagi katta maydonlar muz bilan qoplanadi. Bu jarayon materiklarning muz bilan qoplanishi Yer yuzasi holatining Quyoshga nisbatan davriy tebranib turishi bilan bogʻliq

**Adabiyotlar:** [1,2,3,4,5,7,8,9,10,11,13,14,15,16,17 b.]

#### **6-mavzu. Oʻzbekistonda ichki suvlarning hududiy taqsimlanishi. Yer osti suvlari**

Oʻzbekistonning iqlimi gʻoyat quruq boʻlishiga Qaramasdan uning hududida daryo va koʻllar ancha koʻp. Lekin ular respublikamizda notekis joylashgan. Tekislik qismida Qar suvlar juda kam. Togʻlarida esa serirmoq daryolar, katta-kichik soy va jilgʻalar juda ham koʻp. Togʻlardan oqib tushgan daryolar tekislikka kelishi bilan asosan ekin Aalarini sugʻorishga sarf boʻladi, qisman bugʻlanadi, yer ^stiga sizib ketadi va shunday qilib, suvi asta-sekin kamayib qoladi. Shuning uchun ham Oʻzbekiston daryolarining koʻpchiligi maʼlum bir suv havzasiga quyilmasdan tugab qoladi.

**Adabiyotlar:** [1,2,3,4,5,7,8,9,10,11,13,14,16,17 a.]

#### **7-mavzu. Oʻzbekiston suv resurslaridan oqilona foydalanish**

Suv resurslaridan yerlarni oʻzlashtirish omili tariqasida oqilona foydalanish masalalari nafaqat paxtachilik zonasida, balki paxtachilik-lalmikor va lalmikor zonalarda xam muxim axamiyatga molikdir.

Maʼlumki, Oʻzbekistonning suv resurslari Sirdaryo va Amudaryo bilan bogʻliq. Sirdaryoning koʻp yillik oʻrtacha oqimi 38 km<sup>3</sup> ni, Amudaryoniki esa 79 km<sup>3</sup> ni tashkil etadi. Hozirgi kunda ularning suv resurslari deyarli tugab boʻlgan. Shu munosabat bilan obikor dehqonchilikda suv resurslarini toʻgʻri hisobga olish va ulardan oqilona foydalanish muammosi dolzarb masalaga aylangan. Amudaryo irmoqlaridan Surxondaryo (70,2 m<sup>3</sup>/s), Sherobod (7,5 m<sup>3</sup>/sek), Qashqadaryo (50 m<sup>3</sup>/s), Zarafshon (164 m<sup>3</sup>/s) daryolari Oʻzbekiston hududida oqadi.

**Adabiyotlar:** [1,2,3,4,5,7,8,9,10,11,13,14,16,17 a.]

#### **III. Amaliy mashgʻulotlari buyicha koʻrsatma va tavsiyalar**

Amaliy mashgʻulotlar mulʼtimeidiya qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-oʻqituvchi tomonidan oʻtkazilishi zarur. Mashgʻulotlar faol va interaktiv usullar yordamida oʻtilishi,

mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qoʻllanilishi maqsadga muvofiq.

#### **Amaliy mashgʻulot mavzulari**

1. Iqlim elementlarining hududiy geografik taqsimlanishi
2. Oʻzbekistonning yanvar va iyul oylari izotermalari
3. Oʻzbekistonda havo haroratining punktlari boʻyicha geografik taqsimlanishi
4. Oʻzbekistonda yogʻinlarning punktlar boʻyicha geografik taqsimlanishi
5. Havoning mutlaq va nisbiy namligi
6. Oʻzbekistonning gidrografik xaritasi
7. Oʻzbekistonning yirik daryolari va gidrometrik koʻrsatkichlari
8. Oʻzbekistonning koʻllari va suv omborlarining gidrometrik koʻrsatkichlar

#### **IV. Mustaqil taʼlim va mustaqil ishlar**

Mustaqil oʻzlashtiriladigan mavzular boʻyicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

#### **Mustaqil taʼlim mavzulari**

1. Oʻzbekistonning tabiiy sharoitining iqlim shakllanishiga taʼsiri
2. Oʻzbekiston iqlimining antropogen omil taʼsirida oʻzgarishi
3. Iqlim elementlarini yil fasllari boʻyicha geografik taqsimlanishi
4. Oʻzbekistonning yanvar va iyul oylari izogiyeta chiziqlari xaritasi
5. Oʻzbekistonda havo harorati koʻrsatkichlarining qishloq xoʻjaligi ekinlari hududiy joylashirish masalasiga taʼsiri
6. Oʻzbekistonda yogʻinlarning punktlar boʻyicha geografik taqsimlanishi
7. Havoning mutloq va nisbiy namligi
8. Bulutlar tasnifi
9. Oʻzbekistonni agroiqlimiy rayonlashtirilishi masalalari bilan shugʻullangan oʻzbek olimlari
10. Oʻzbekistonning gidrografik xususiyatlari
11. Amudaryoning gidrometrik koʻrsatkichlari
12. Sirdaryoning gidrometrik koʻrsatkichlari
13. Zarafshon daryosining gidrometrik koʻrsatkichlari
14. Surxondaryoning gidrometrik koʻrsatkichlari
15. Oʻzbekistonning koʻllari va suv omborlarining gidrometrik koʻrsatkichlari tahlili
16. Oʻzbekiston shifobaxsh suvlarining gidrogeologik havzalar boʻyicha taqsimlanishi

**Geografiya 5-kurs (sirtqi) taʼlim talabalari uchun**

**«Oʻzbekiston iqlimi va suv resurslari» fanidan nazorat turlari va baholash mezonlari**

Asos: O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018 yil 9-avgustdagi 19-2018-sonli buyrug'i.

## V. TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (LIST OF RECOMMENDED LITERATURE)

Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari  
Asosiy adabiyotlar

1. Baratov P. O'zbekiston tabiiy geografiyasi. -T., O'qituvchi, 1996.
2. Hasanov I., G'ulomov P.N. O'zbekiston tabiiy geografiyasi (1-qism). O'quv qo'llanma.-T.: O'qituvchi, 2007.
3. Hasanov I., G'ulomov P.N., Qayumov A. O'zbekiston tabiiy geografiyasi (2-qism). O'quv qo'llanma.-T.: Universitet, 2010.
4. Soliyev A. O'zbekiston geografiyasi.-T.: "Universitet", 2014.
5. G'.X.Yunusov., R.R.Ziyayev. "Umumiy gidrologiya va iqlimshunoslik" Toshkent. 2018.
6. Yu.V.Petrov. X.T.Egamberdiev. "Iqlimshunoslik" Toshkent 2010.

### Qo'shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T., - "O'zbekiston". - 2016 y. - 56 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali ma'rosimidagi ma'ruza // T., - "O'zbekiston". - 2017 y.
3. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi. T., - "O'zbekiston". - 2017 y.
4. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. T., - "O'zbekiston". - 2017 y. - 592 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mart va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T., - "O'zbekiston". - 2017 y. - 488 b.
6. Бабушкин Л.Н., Когай Н.А. Физико-географическое районирование Узбекской ССР. Труды ТашГУ. Нов.серия. вып 231. Географические науки, кн.27.-Т., 1964.
7. Акрамов З.М., Рафиков А.А. Прошлое, настоящее и будущее Аральского моря.-Т., 1990.
8. Бабушкин Л.Н., Когай Н.А., Зокиров Ш.С. Агроклиматические условия сельского хозяйства Узбекистана.-Т.: Мехнат, 1975.
9. Глазырин Г. Э., Чуб В. Э.Краткий очерк климата Узбекистана. Ташкент 1999 г.
10. Rasulov A. R., Xikmatov F. X. O'zbekistonning suv resurslari, ularni tejash va muhofaza qilish yo'llari. Toshkent 1989 y.
11. Mo'minov A. va boshqalar. O'zbekiston tabiiy geografiyasi. -T.: O'qituvchi, 1984.
12. «2002-2004 yillarda O'zbekiston Respublikasida atrof-muhit va tabiiy resurslardan foydalanishning xolati to'g'risida Milliy ma'ruza». -T., 2005.

№	Nazorat turlari	Soni	Baho
1	O.N. Yozma ish	1	5
2	Y.N. Yozma ish	1	5

## NAZORAT TURLARI

### 1-nazorat turi.

**Oraliq baholash.** Fan bo'yicha 1ta oraliq baholash amalga oshiriladi.

**Oraliq nazorat** baholashda fan bo'yicha ma'ruza mashg'ulotlar o'tilgandan so'ng o'tkaziladi. Oraliq nazorat og'zaki tarzda o'tkaziladi. Oraliq nazoratda talabalarga o'tilgan mavzular bo'yicha 3tadan savol beriladi. Baholash mezoniga ko'ra talabalar bilimi 2, 3, 4, 5 baho bilan baholanadi.

Oraliq nazorat turini topshirmagan, shuningdek, ushbu nazorat turi bo'yicha "2" (qoniqarsiz) baho bilan baholangan talaba yakuniy nazorat turiga kiritilmaydi.

### 2-nazorat turi. Yakuniy nazorat.

Yakuniy nazorat o'quv rejaga muvofiq, ma'ruza va amaliy mashg'ulot darslari tugagandan keyin, semester yakunida o'tkaziladi.

Yakuniy turini o'tkazish va mazkur nazorat turi bo'yicha talabaning bilimini baholash o'quv mashg'ulotlarini olib bormagan professor-o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Yakuniy nazoratda talabalarga o'tilgan mavzular bo'yicha 3tadan savol beriladi. Baholash mezoniga ko'ra talabalar bilimi 2, 3, 4, 5 baho bilan baholanadi.

Yakuniy nazorat turiga kirmagan yoki kiritilmagan, shuningdek, ushbu nazorat turi bo'yicha "2" (qoniqarsiz) baho bilan baholangan talaba **akademik qarzdor** hisoblanadi.

### Talabalarining bilimi quyidagi mezonlar asosida:

Talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikr qilay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda - 5 (a'lo) baho;

Talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda - 4 (yaxshi) baho;

Talaba olgan bilimni amalda qo'llay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda - 3 (qoniqarli) baho;

Talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda - 2 (qoniqarsiz) baho bilan baholanadi.